



EKSTREMISTIK MATN KATEGORIYALARI: LINGVISTIK-EKSPERT YONDASHUV ASOSLARI

Abror Kurbonmuratov

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi.

Annotatsiya: Maqolada ekstremistik matnlarning asosiy kategoriyalari lingvistik-ekspert yondashuv asosida tahlil qilinadi. Ekstremistik matnlarni kommunikativ maqsadi, pragmatik yo'nalishi va diskursiv xususiyatlariga ko'ra tasniflash taklif etiladi. Tadqiqot natijalari sud-lingvistik ekspertiza amaliyotida va ekstremizmga qarshi ilmiy asoslangan choralarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: ekstremistik matn, lingvistik ekspertiza, diskurs, pragmatika, nutqiy ta'sir, matn tasnifi.

Globalashuv va raqamli kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi sharoitida ekstremistik mazmundagi matnlar axborot makonida turli shakllarda keng tarqalmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va onlayn platformalar orqali radikal g'oyalar tezkor va keng auditoriyaga yetib borayotgani ekstremistik matnlarni aniqlash va baholash masalasini murakkablashtirmoqda. Shu bois ekstremistik matnlarni lingvistik mezonlar asosida tizimli tasniflash sud-lingvistik ekspertiza va axborot xavfsizligi sohalari uchun dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylanib boryapti.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ekstremistik matnlarni ularning kommunikativ maqsadi, pragmatik yo'nalishi va diskursiv xususiyatlari asosida kategoriyalarga ajratishdan maqsad qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi leksik-semantik tahlil, pragmalingvistika, nutq aktlari nazariyasi hamda diskurs tahlili elementlariga tayangan holda ishlab chiqilgan.

Ushbu kompleks yondashuv ekstremistik matnni alohida til birliklari majmui sifatida emas, balki adresatga yo'naltirilgan yaxlit kommunikativ hodisa sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Tahlil jarayonida ekstremistik matnlarning bir nechta asosiy kategoriyalari ajratib ko'rsatildi. Birinchi kategoriya — chaqiriq xarakteridagi ekstremistik matnlar bo'lib, ular zo'ravonlik, qonunga xilof harakatlar yoki konstitutsion tuzumga qarshi faoliyatga undovchi nutq aktlari bilan tavsiflanadi.

Ushbu turdagi matnlarda buyruq mayli, majburiyatni bildiruvchi modal birliklar va agressiv baholovchi leksika ustunlik qiladi.

Ikkinchi kategoriya — oqloqchi (legitimashtiruvchi) ekstremistik matnlar bo'lib, ular ekstremistik g'oyalarni tarixiy, diniy yoki mafkuraviy asoslar orqali oqlashga qaratilgan. Bunday matnlarda selektiv iqtiboslar, kontekstni buzish va psevdologik xulosalar orqali auditoriyani ishontirish strategiyasi qo'llanadi.

Uchinchi kategoriya — propagandaviy ekstremistik matnlar bo'lib, ularning asosiy maqsadi ekstremistik g'oya yoki tuzilmaning ijobiy obrazini shakllantirishdan iborat.

Ushbu matnlarda "biz – ular" oppozitsiyasi, emotsional-ekspressiv vositalar va romantizatsiya usullari keng qo'llanadi.



Alohida guruh sifatida nafrat va adovat qo'zg'atuvchi ekstremistik matnlar ajratiladi. Ular muayyan etnik, diniy, ijtimoiy yoki siyosiy guruhlariga nisbatan kamsituvchi, tahqirlovchi va dehumanizatsiya qiluvchi til birliklariga asoslanadi. Bunday matnlarda stereotiplashtirish va umumlashtirish diskursiv mexanizmlari muhim o'rin tutadi.

Lingvistik-ekspert yondashuv doirasida ekstremistik matnni aniqlashda alohida so'z yoki iboralar emas, balki matnning umumiy semantik yo'nalishi, pragmatik maqsadi, kontekstual uyg'unligi va muallif pozitsiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Ekstremistiklikni baholashda matnning auditoriyaga ko'rsatadigan ehtimoliy ta'siri ham muhim mezon hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ekstremistik matnlarni kategoriyalarga ajratish sud-lingvistik ekspertiza jarayonida ilmiy asoslangan va ob'ektiv xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan yondashuv ekstremizmga qarshi kurashda, xususan, axborot makonini monitoring qilish va profilaktik choralarni ishlab chiqishda samarali ilmiy vosita sifatida qo'llanishi mumkin.